

## DORIVOR QOQIO‘T XUSUSIYATLARI

Mirzayeva Dilshoda Amirqul qizi

DTPI biologiya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11527612>

*Annotatsiya.* Qoqio‘tdoshlar oilasini o‘rganish mobaynida uning *Taraxacum turkumiga* kirishi, uning ko‘p yillik ekanligi kuzatildi. Bu maqolada dorivor qoqio‘t o‘simligi to‘g‘risida, uning shifobaxsh xususiyatlari, undan tayyorlangan maxsulotlarni is‘temol qilish va tibbiyotda alohida o‘ringa ega bo‘lishi ko‘rib chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** Qoqio‘t, naychasimon gullar, tilsimom gullar, soxta tilsimon va dahanasimon gullar, to‘pgullar.

## PHARMACEUTICAL CHARACTERISTICS

**Abstract.** During the study of the family of Kokioldash, it was observed that it belongs to the *Taraxacum* family, and that it is perennial. In this article, the medicinal plant, its healing properties, the consumption of products made from it, and its special place in medicine were considered.

**Key words:** Calyx, tube-shaped flowers, branch-shaped flowers, false-tongued and branch-shaped flowers, inflorescences.

## ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

**Аннотация.** При изучении семейства кокиотдашных замечено, что оно относится к семейству Тараксакум и является многолетним. В данной статье было рассмотрено лекарственное растение, его целебные свойства, потребление продуктов из него, а также его особое место в медицине.

**Ключевые слова:** Чашечка, трубчатые цветки, ветвистые цветки, ложноязычковые и ветвистые цветки, соцветия.

**Kirish.** Qoqi-murakkabguldoshlarga mansub ko‘p yillik sut shirali o‘simlik turkumi. Bo‘yi 10-40 sm, barglari ildiz bo‘g‘zidan chiqqan, lansetsimon, ko‘pincha to‘pbarg hosil qiladi. Gullari sariq, savatchaga yig‘ilgan. Mevasi pistacha. Apreldan iyulgacha gullab, meva tugadi. O‘zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida tarqalgan. Yo‘l yoqalari, ariq bo‘ylari, bog‘lar, tog‘li joylar va dalalarda uchraydi. Tog‘ qoqi, dorivor qoqi (momaqaymoq), shoxsiz qoqi, kallakdor qoqi va boshqa turlari bor. Ildizida inulin to‘planadi. Barglari sabzavot sifatida ishlatiladi. Qoqio‘tning ildizidan tayyorlangan ekstrakt yoki poroshok ishtaha ochuvchi, ovqat hazm qilishni yaxshilovchi hamda o‘t haydovchi dori sifatida ishlatiladi.

Qoqio‘tdoshlar oilasi 1250-1300 ta turkumga mansub 25000 ta turni birlashtiradi. Ular Yer shari bo‘ylab keng tarqalgan. Hayotiy shakliga ko‘ra oilada bir va ko‘p yillik o‘tlar ustunlik qiladi. O‘rta Osiyoda oilaning 179 ta turkumga mansub 1463 ta turi, O‘zbekistonda 121 ta turkumga oid 566 ta turi o‘sadi. Bu oilaga asosan bir va ko‘p yillik o‘tlar hamda ayrim buta, liana va kichik daraxtlar kiradi. Ular xilma-xil ekologik sharoitda-cho‘llardagi qumlarda, sho‘rxok va gipsli tuproqlarda, adirlardagi mayda chag‘ir toshli, shag‘alli joylarda buta va daraxtzorlar orasida keng tarqalgan. Barglari oddiy, ketma-ket, ba‘zan qaramaqarshi yoki halqa hosil qilib joylashgan. Yaprog‘i turlicha shakl va kattalikda. Yonbargchalari bo‘lmaydi. Gullari turlicha kattalikda va rangda bo‘lib, bir nechtasi birgalikda savatchalarda o‘rnashgan. Gulqo‘rg‘oni bo‘laklarining tuzilishi, shakli, soni, joylashishi har xil bo‘lganligi hamda ularning savatchalarda joylashganligiga qarab bu oilaga murakkabguldoshlar deb ham nom berilgan.

Qoqio‘tdoshlar vakillari gultojining tuzilishiga qarab odatda 4 guruhga bo‘linadi:

1. Naychasimon gullar. Gullari aktinomorf, ikki jinsli, 5 bo‘lakchali yoki tishli uch tomsimon.
2. Tilsimon gullar. Gultoji zigomorf, ikki jinsli, uchi 5 tishli, uzun tilsimon. Bunga qoqio‘t va sachratqilar kiradi.
3. Soxta tilsimon gullar. Gultoji zigomorf, hamisha urug‘chi gullardan iborat. ikki labli, ustki labi reduksiyalangan. Bunga andiz, moychechak va kungaboqar savatchalarining chetidagi gullar kiradi.
4. Dahanasimon (voronkasimon) gullar.

Turkumning Dorivor qoqio‘t - *Taraxacum officinale* turidan dorivor o‘simlik sifatida foydalaniladi. U pastki barglari yerga yotib o‘sadigan ko‘p yillik o‘t. Gullari (to‘pguli) to‘q sariq. Savatchasining diametri 3-4 sm, gulbandi uzun. Asosan aholi yashaydigan joylarda, yo‘l yoqalarida, ariq bo‘ylarida o‘sadi. Tibbiyotda qoqining ildizidan foydalaniladi.

-Qoqio‘t po‘stlog‘i triterpenli birlashuvga ega: taraserol, taraksol, taraksasterop, psevdotaraksasterop, sterinlar, sitosterin va stigmasterin, inulin (40%gacha), xolin, karotinoidlar, achchiq modda, laktukopikrin, A, V1, V2 darmondorilari, askorbin kislota, kauchuk (3%gacha), asparatin, shilliq, yelim, protein (5%gacha) va biroz quyuyq yog‘; kuzda ildizlarda 18% gacha shakar to‘planadi.

-To‘pgullari va barglarida askorbin kislota (50 mg%gacha), V1, V2, Ye darmondorilari, karotinoidlar, yelim, mum, kauchuk, spirtlar, oqsillar, G‘e, Ca, Mn, P tuzlari topilgan.



-Qoqio‘t gulchangida B, Mg, Cu, Mo, Co, Ni, Sr tuzlari mavjud. Davolash maqsadida ildizlardan kuzda, barglaridan bahorda, o‘simlik gullashidan avval dori tayyorlaydilar. Ildizni suvda yuvib, avvaliga (3-4 kun) havoda, keyin quriguncha soyada quritiladi. Ibn Sinoning ma‘lum qilishicha, qoqio‘tning sutsimon shirasi ko‘zga tushgan oqni yo‘qotadi, jigardagi tiqinlarni ochadi, istisqo va chayon chaqqanda yordam beradi.

Xalq tabobatida qoqio‘tdan bezgak, ishtahani ochish va ovqat hazm bo‘lishini yaxshilashda, tiqinlar, meteorizm, sariq kasal, gepatit, xolesistit, bod kasali, qand kasalligi, qon bosimi, siydik chiqarish yo‘llari shamollashi va buyraktosh kasalliklarini davolashda foydalaniladi.

- Sutsimon shira, o‘simlik ildizi yoki barglaridan bo‘tqa malham shaklida ekzema, yara, chipqon, milkak, kuyishni davolashda va so‘galni olib tashlashda ishlatiladi.

Zamonaviy tibbiyotda quyuq ekstrakt qaynatmasi va choy to‘plami tarkibida ishtahani ochish va hazm qilish organlari faoliyatini yaxshilashda, safro haydovchi va qabziyatda yengil surgi dori sifatida foydalaniladi. O‘simlik yallig‘lanishga qarshi kuchli vosita ham hisoblanadi.

E‘tiborli jihati, qoqio‘tning tarkibida qator fitonutrientlar bor: ulardan biri appedinin, bu juda kuchli nutrient bo‘lib, u ximiyaterapiyaga o‘xshash vazifani o‘taydi. U saratonga qarshi ta‘sir etish kuchiga ega.

Qoqio‘t jigarga juda foydali, shuning uchun uni ko‘pchilik salatga qo‘shadi. Bundan tashqari, bu o‘simlik buyraklar, o‘t pufagi kasalliklarida ham yordam beradi, uning jigarga foydasi katta. Jigarni yog‘ bosganida, yallig‘lanish kuzatilganida, fibroz, serroz boshlanganida qoqio‘t yaxshi yordam beradi.

**REFERENCES**

1. C.M.Mustafayev, O'.A.Axmedov, M.S.Mustafayeva, M.T.Yulchiyeva Botanika.Toshkent-2012.
2. A.C.Yuldashev, Sh.J.Tojiboyev, A.A.Imirsinova, M.U.Tojiboyev Botanika (Geobotanika asoslari).
3. O'.Pratov, L.Shamsuvaliyeva, E.Sulaymonov, X.Axunov, K.Ibodov,
4. V.Maxmudov. Botanika ( Morfologiya, Anatomiya, Sistematika, Geobotanika).